

### 3-Mavzu: An'ana nima?

#### Dars maqsadi:

- To'lqin Rasulovning "Ta'zim" hikoyasi bilan tanishtirish;
- an'nalar haqida ma'lumot berish;
- nonni e'zozlashga o'rgatish;
- tinglab tushunish malakasini shakllantirish.

**Tayanch so'zlar:** nonni qadrlash, Qosim bobo, to'p tepayotgan bolalar .

**Didaktik materiallar:** nonning dasturxonimizga yetib kelguncha bosib o'tadigan yo'li tasvirlangan rasmlar, audiomatn.

#### Darsning borishi:

##### I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

**Faollashtiruvchi mashq:** Nuqtalar o'rniغا harf qo'yib so'z hosil qiling.

NO.

##### II. O'tilganlarni takrorlash. (8 daqiqa)

Rivoyatning mazmuni so'zlab beriladi. Mehmondo'stlik haqida maqollardan aytildi.

##### III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

**Amaliy topshiriq.** So'zlarni o'z o'rniغا qo'ying va maqollarni o'qing.



Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Sizda qanday maqollar hosil bo'ldi?
2. Maqollar nima haqida ekan?

#### Mavzuni tushuntirish.

O'quvchilarga an'ana haqida ma'lumot beriladi.

*An'ana – nasldan naslga o'tuvchi qoida, urf-odat va boshqa amallar. Mana shularning bir oilaga xosligi oilaviy an'ana bo'ladi. Masalan, biror hunarning avloddan avlodga o'tib davom etib borishi, o'sha avlodgagina xos bo'lgan ilmfanga, san'atga ishtiyoq, biror buyumni nasldan naslga yetkazib bera bilishlik kabilardir.*

### **Matn ustida ishslash.**

**"Bir butunga yig'amiz"** mashqi.

Hikoya matnidagi gaplar alohida-alohida qilib kesib beriladi. O'quvchilar audiomatnni tinglash jarayonida o'z gapining o'rnini aniqlashadi va o'rnidan turib xattaxta yoniga navbatma-navbat chiqadi. Audiomatn tugagach o'quvchilar o'zлari hosil qilgan matnni o'qib berishadi.

Darslikdagi QR-kod orqali To'lqin Rasulovning "Ta'zim" audiomatni tinglanadi.

### **TA'ZIM**

#### **To'lqin Rasulov**

Hassasini do'qillatib kelayotgan Qosim bobo bolalar to'p o'ynayotgan maydonchada bir oz to'xtab qoldi. U oppoq soqolini silab, kichkintoylarning terlab-pishib chopayotganiga havaslanib qarab turdi. Shu payt to'p tepayotgan bolalardan birining apil-tapil non yeyayotganini ko'rdi; uch-to'rt ushoq tushganida, uning o'siq, oppoq qoshlari chimirildi. Bobo o'sha tomonga borib, yerdagi non ushoqlarini tera boshladidi. Farhod ziyrak bola emasmi, buni ko'rib, bir zum qotib qoldi-da, so'ng o'rtog'iga qarab qichqirdi:

– Zokir, to'xta!.. To'xta deyapman!..

Zokir Farhodning ovozini eshitib, taqqa to'xtadi. Farhod unga Qosim boboni ko'rsatdi. Hammalari Qosim boboni o'rabi olishdi.

– Nima qilyapsiz, bobojon? – dedi Zokir achinib. – Biror narsangizni yo'qotdingizmi?

Bobo Zokirga qarab kulib qo'ydi.

– Hech nima yo'qotganim yo'q, bo'tam. Non uvoqlarini terayapman...

Zokir jon holatda bo'ynini ichiga tortib, qo'lida qolgan bir tishlam nonni orqasiga bekitgan edi, Farhodning jahli chiqdi.

– O'ynayotganda ham nonni yeydimi odam! – dedi xuddi kattalardek.  
– Nonni uyda o'tirib yeyish kerak.

Zokirning quloqlarigacha qizarib ketdi:

–Bobojon, siz ... egilmang, ushoqlarni... o'zim terib olaman.

Bobo jilmayib qo'ydi.

- Egilayotganim yo'q, bo'tam, men non uvoqlariga ta'zim qilyapman. Axir non qancha odamlarning mehnati, peshona teri bilan bunyod bo'lgan... Men o'sha odamlarga rahmat aytib, ta'zim qilyapman.

Boboning bu gapidan bolalar ta'sirlanib ketishdi, yerdan ushoq qidira boshlashdi...

Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Bolalar nima qilishayotgan edi?
2. Nima uchun Qosim boboning qoshlari chimirildi?
3. Ayting-chi, nega bolalar boboni o'rab olishdi?
4. Zokirjon to'g'ri ish qildimi? Fikringizni bildiring.
5. O'ylab ko'ring, non dasturxonimizga yetib kelguncha qancha insonlar mehnati jalg qilingan?
6. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz. Fikringizni izohlang.
7. Sizningcha, hikoyada qanday an'analarimiz yashiringan?

#### **Mashq daftari bilan ishslash.**

Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi. "Ta'zim" hikoyasidagi voqealar ketma-ketligini aniqlang.

- |   |   |
|---|---|
| 1 | • Hassasini do'qillatib kelayotgan Qosim bobo bolalar to'p o'ynayotgan maydonchada bir oz oz to'xtab qoldi.                     |
| 4 | • Bobo o'sha tomonga borib, yerdagi non ushoqlarini tera boshladi.  |
| 2 | • Shu payt to'p tepayotgan bolalardan birining apil-tapil non yeyayotganini ko'rdi.   |
| 5 | • Zokirjon holatda bo'ynini ichiga tortib, qo'lida qolgan bir tishlam nonni orqasiga bekitgan edi, Farhodning jahli chiqdi.     |
| 3 | • Uch-to'rt ushoq tushganida, uning o'siq, oppoq qoshlari chimirildi.   |
| 6 | • Axir non qancha odamlarning mehnati, peshona teri bilan bunyod bo'lgan... Men o'sha odamlarga rahmat aytib, ta'zim qilyapman. |

Hikoyani tahlil qilinadi.

**Hikoya nomi:** Ta'zim

**Muallifi:** To'lqin Rasulov

**Qahramonlari:** Qosim bobo, Farhod, Zokirjon

**Hikoya nima haqida:** Nonni dasturxon atrofida o'tirib yeish, uni qadrlash haqida

**Xulosa:** Nonning ushog'i ham non.

Hikoya qahramonlariga ta'rif beriladi.  
Tushirib qoldirilgan unlilar qo'yiladi va maqollar o'qiladi.

N . n ham n . n, ush . g'i ham n . n.  
N . nga h . rmat – elga humr . t.  
N . n qadr . ni . ch bilar,  
Kiy . m q . drini – yal . ng' . ch.

Rasm asosida oilaviy an'analar hadiga og'zaki gaplar tuziladi.

Tez aytish ayttiriladi.

#### **IV. Darsni yakunlash va baholash. (*3daqiqa*)**

- Darsda nimalarni bilib oldingiz?
- Qanday xulosa chiqardingiz?
- Bugun o'rganganlaringizdan qaysilarini kundalik hayotda qo'llaysiz?

**V. Uyga vazifa. (*1 daqiqa*)** “Non-dasturxonimiz ko'rki” mavzusida kichik matn yarating.

#### **4-Mavzu: Ibratli amallar va go'zal an'analar**

##### **Darsning maqsadi:**

- “Hashar – elga yarashar” matni bilan tanishtirish;
- ibratli amallar va go'zal an'analar haqida tushuncha berish;
- bog'lanishli nutqini o'stirish;
- muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish.

**Tayanch so'zlar:** hashar, ibratli amallar, ahillik.

**Didaktik materiallar:** mavzuga mos rasmlar.

##### **Darsning borishi:**

#### **I. Darsning kirish qismi. (*3 daqiqa*)**

Darsni tashkil qilish.

##### **Faollashtiruvchi mashq:**